

MUSTAQILLIK YILLARIDA FARG‘ONA VODIYSI XALQ BAYRAM TEATRLASHTIRILGAN TOMOSHALAR SSENOGRAFIYASINING YUTUQ, MUAMMO VA YECHIMLARI

XOJIAKBAR MAXAMADALI O‘G‘LI OXUNDEDAEV

doktarant

Kamoliddin Bexzod nomidagi MRDI

E-mail: Xojioxon87@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.37547/ssa-V4-I5-3>

Annotatsiya: Mustaqillik yillaridagi Farg‘ona vodiysi teatrlashgan ommaviy bayramlar ssenografiyasi san’ati jarayonining o‘ziga xosligi, tomosha sahnasining badiiy jarayonlari, Gullar bayrami, Xalqaro hunarmandlar festivali va Buyuk ipak yo‘li bayrami bir biriga bog‘liqligi, qiyosi va o‘ziga xosligi ilmiy va taxliliy nazariyasi haqida taxlil qilingan.

Kalit so‘zlar: Ssenografiya, ommaviy bayram, teatrlashgan maydon tomoshalar, Gullar bayrami ssenografiyasi, Mustaqillik bayrami, tasviriy san’at, ssenografiya turlari va badiiy bezaklar, sahnalarning o‘ziga xosligi va ssenografiyasining qiyosi.

KIRISH

Mustaqillikning dastlabki yillaridanoq ommaviy bayram, tomoshalar, milliy bayramlarga, xalq o‘yinlari, urf-odatlarga alohida e’tibor qaratila boshladi. Bu tadbirdilar o‘zbek xalqining hayotida muhim o‘rin tutadi va ularni nishonlash, o‘rganish, boshqa insoniylar qadriyatlarini ko‘zdan kechirish uchun fursat yaratadi. Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillarda deyarli barcha sohalarda milliylikka e’tibor qaratildi. San’at, adabiyot, madaniyatda milliy ruh, milliy an’analar aks eta boshladi. Farg‘ona vodiysi viloyatlarida xalq tomonidan nishonlanadigan barcha bayramlarda ommaviylikka e’tibor qaratilgan. Shu o‘rinda xorijlik olimlarning bayram haqida fikrlariga etibor qaratsak “Bayram” va “bayram” tushunchalari ham farqlanadi. Bayram — bayram yoki bayram, biror narsani bayramlar, marosimlar bilan nishonlash; voqeani hurmat qilish yoki uni eslash. Bir tomonidan, bayram bayramdan tashqari narsa, uning ifodalanish shakli, marosim tomoni sifatida qaralsa, ikkinchi tomonidan, bir qator tadqiqotchilar bayram haqida muqaddas xususiyatga ega bo‘lgan narsa sifatida yozadilar”. Ommaviy bayramlarda milliy mustaqillik g‘oyalarini aks ettirish, milliy o‘zlik, asrlar davomida shakllangan udumlarni qayta jonlantirish ommaviy bayramlarning asosiy vazifasi bo‘ldi. Mustaqillik davrida bir qancha bayramlar qayta jonlandi. Mustaqillik davrida xalq bayramlarining keng tarzda, ommaviy tantanalar bilan nishonlanishi urfga aylandi. Dastlabki yillarda bayram shodiyonalari mamlakatning asosiy maydonida va viloyat markazlaridagi ochiq maydonlarda tashkil etilgan. Mustaqillik davridagi dastlabki ommaviy bayram “Mustaqillik” bayrami bo‘lgan.

Oxirgi yillarda aynan Farg‘ona vodiysi viloyatlarida tashkil etilayotgan ommaviy tomoshalar ssenografiyasida bir qancha o‘ziga xosliklar ko‘zga

tashlanadi. Bu bayram mazmuni va ssenariysi bilan ham uzviy bog‘liq. 2000-yildan so‘ng Farg‘ona vodiysisida tashkil etilayotgan ommaviy tomoshalar ssenografiyasida katta o‘zgarishlar ro‘y berdi. Birinchidan, ommaviy tomoshalar formati kengaydi, festival turlari ko‘paydi. Deyarli barcha festivallarning ochilish va yopilish marosimlari katta teatrlashgan ommaviy tomoshalar bilan o‘tmoida.

ASOSIY QISM

Andijon, Namangan, Farg‘ona viloyatlarida o‘tkaziladigan festival bayramlar mavjud. Ushbu festivallarning ko‘plari xalqaro maqomga ega. Masalan, Namangandagi xalqaro “Gullar festivali” yarim asrdan ortiq tarixga ega. Ushbu festival faqatgina Namangan shahrida tashkil etiladi. Bunday festivalni boshqa viloyat va shaharlarda kamdan kam uchratish mumkin. Uning o‘tkazilish shakli va ommaviy tomosha ssenografiyasi, asosan, gul kompozitsiyasidan iborat. Yana shunday tadbirdlardan biri “Xalqaro hunarmandlar festivali” hisoblanadi. Ushbu festival ham mamlakatimizning boshqa shaharlarda o‘tkaziladigan ommaviy tomoshalardan farq qiladi. Festival doirasidagi ko‘rgazmalar va uning ochilish marosimi tadbiri ssenografiyasi o‘ziga xosligi bilan alohida ajralib turadi. Umuman olganda, Farg‘ona vodiysisida tashkil etiladigan ommaviy tomoshalar ssenografiyasining o‘ziga xos jihatlari tomosha o‘tkaziladigan joydan tortib uning dekoratsiyasigacha ko‘zga tashlanib turadi. Eng muhim jihatlaridan biri liboslari o‘z uslubi, ranglari bilan alohida ajralib turgan. Bu jihat bugungi ommaviy tomosha ssenografiyasida ham o‘z aksini topgan.

Farg‘ona vodiysisida tashkil etilayotgan ommaviy tomoshalar ssenografiyasidagi yutuqlar. Aynan Farg‘ona vodiysi viloyatlarining turli ommaviy tomoshalar ssenografiyasida bir qancha yutuqlar kuzatiladi. Oxirgi yillarda tashkil etilayotgan ommaviy tomoshalar ssenografiyasida sahna va undagi ishtiroychilarning chiqishlari, liboslarida katta o‘zgarishlar ko‘zga tashlanadi. So‘nggi yillarda tomoshabinlar va chet ellik mehmonlar e’tirofiga sazovor bo‘lgan Marg‘ilondagi “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivali, Qo‘qon shahrida tashkil etilgan “Hunarmandlar festivali”, Namangandagi “Gullar festivali”, Andijongi “Dunyo sadolar” xalqaro milliy estrada festivali va “Yoshlar festivali” kabi ommaviy tomoshalarni sanab o‘tish mumkin. Bu festivallar ommaviy tomoshasi muvaffaqiyatli o‘tkazilgan. Ularning ssenografiyasida o‘ziga xosliklar

va yangiliklar ko‘p. Farg‘ona vodiysi bayramlari haqida gapirsak shuncha kam go‘yo shu sababli ham ularidan bazilarini o‘ziga xosligini taxlil qilsak masalan, 2023-yil 29-may kuni Marg‘ilon shahrida o‘tkazilgan “Buyuk ipak yo‘li” xalqaro folklor musiqa festivalining ssenografiyasi bunga misol bo‘la oladi. Sahnaning markazida mahobatli dekoratsiya, ya’ni ko‘priki, ko‘priki da xalqlararo miqyosdagi milliy binolar aks etgan. Tepasidagi raqqosalarning harakatlari ramziy ma’noda Buyuk ipak yo‘lini tasvirlagan. Dekoratsiyaning tepasida uzunligi 10 metrlik, balandligi 8 metrlik zamonaviy ekran o‘rnatilgan va ssenografiyaning o‘zgaruvchanligini ta’minlagan.

Yana bir o‘ziga xos va yutuq tomoni tarixiy ahamiyatga ega bayramlar ham borligi Namangan shahrida har yili an’anaviy bo‘lib o‘tdigan “Gullar festivali” hisoblanadi. Unda Namangan shahridagi mashhur bog‘bonlar, gulchilar ishtirok etadi. Tadbir oddiy tanlov ko‘rinishida emas, balki katta ommaviy tomosha shaklida o‘tkaziladi. Shu kungacha o‘tkazilgan gullar festivali keng miqyosda tashkil etilgan. Manbalarda keltirilishicha, 1800-yil arafasida Tataristondan To‘qmullin-To‘qmulliboy qori ismli fozil kishi Namanganga kelib, shu yerda yashab qoladi. Shaharning Sardoba dahasidan, keyinchalik No‘g‘ay mahalla deb nom qozongan hozirgi Boburshoh ko‘chasi va Toshkent ko‘chasi oralig‘idan 60 sotixli yer olib, imorat quradi. Bog‘ gulzor yaratadi. Shu sabab keyinchalik 1961-yil 19-avgustda kam sonli tashkilotlar tomonidan hozirgi Z.M.Bobur nomidagi etnik parkda “Gul bayrami” o‘tkaziladi va hozirgacha bu an‘ana davom etmoqda. Navbatdag“Gullar festivali” 2024-yilning 19-mayidan Namangan shahrida bo‘lib o‘tdi. Bayramning markaziy tadbiri Afsonalar vodiysi tematik parkining amfiteatrida bo‘lib o‘tdi, ssenografik jihatlari maydonning ellipsis shaklidaligida bo‘lib, orqa fonidagi katta ko‘l va undagi musiqa monand harakatlanuvchi favvoralar turli dekorativ ko‘rinish hosil qilgan. Sahna bezaklari sifatida, asosan, yoritish chiroqlari va shunga o‘xshash texnikalardan foydalanilgan. Dastur davomida teatrlashgan va xoreografiya elementlari sahnuning to‘liq jonli dekoratsiyasi vazifasini bajargan. Yana bir e’tiborli jihatli liboslar hisoblanadi. Raqqosalar va boshqa ijrochilar liboslari yorqin ranglarda, festival tematikasiga mos gulli shaklda bo‘lgan. Ssenografiyasining taxlil qilsa Afsonalar vodiysi tematik parkining amfiteatr sahnasining ikki tomonida LED ekranlar joylashtirilgan. Bu sahnadagi har bir detalni tomoshagohdagi har bir tomoshabinga yetkazib berishga xizmat qilgan. Shu bilan birga, kadr almashinuvi natijasida sahna bezagi gulsimon, naqshinkor dekoratsiyaga aylantirilgan. Konserni bayramona mushakbozlik yakunlab bergen. Ushu festival ssenografiyasi bir qancha yutuqlari bilan ahamiyatli. Festival doirasida sayil, ko‘rgazmalar, gullar bilan bezatilgan avtomobillar paradi va konsert tashkil etilgan. Ommaviy tomoshada zamonaviy texnik uskunalar, yoritkichlardan foydalaniqligi uning ssenografiyasidagi yana bir yutuq hisoblanadi. Ammo rassom asosiy sahnaning umumiyl masshtabidagi tomoshabin bilan sahnadagi masofaga e’tibor berishi lozim, sababi ko‘rish nuqtasidan sahna yaqin bo‘lib qolgan, shu bois ham kompozitsion perspektiva

yo‘qolib qolgan. Shu o‘rinda ssenograf rassom Sh.Abdumalikovning mazkur masala bo‘yicha fikrlariga qiziqsak „Makon vazifasi o‘ziga xos izlanuvchanlik va kuzatuvchanlikni talab etadi. Makon tushunchasiga kirishish davrida tabiatdagi mavjud obyektlarni kuzatish ishlari olib boriladi. Katta obyektlarni kuzatish davomida o‘rta va kichik detallar o‘z-o‘zidan ko‘zga ko‘rina boshlaydi. Ular rassom oldida ifodali va abstrakt tarzda o‘zini namoyon qiladi“. Rassom makon deb tomosha maydoni va undagi barcha jarayonni nazarda tutayoyganini tushunishimiz mumkin.

Bugungi kunda internet tarmog‘i orqali jahonda tashkil etilayotgan festival va boshqa turdag‘i ommaviy tomoshalarni kuzatish imkoniyati mavjud. Bu soha mutaxassislar uchun ajoyib imkoniyat bo‘lib, ommaviy tomosha ssenografiyasining barcha bloklarini kuzatish, o‘rganish va tahlil qilish imkoniyatini beradi. So‘nggi yillarda Farg‘ona vodiysidagi ommaviy teatrlashgan bayramlarda ssenografik jihatdan, asosan, sahnalarda katta ekranlardan foydalanish urfga aylandi, natijada esa relief shaklidagi dekoratsiyalarga kam murojaat qilinmoqda. Ssenografik va san‘atshunoslik nazariyasi bilan qarasak, rassom tomonidan yaratilgan rang-barang shakldagi sahna dekoratsiyalari ommaviy proyektlar uchun muhim hisoblanadi. Sababi namoyish etilayotgan dastur tasviriy san‘at bilan uyg‘unlashsa, tomoshabin diqqatini bir joyga jamlay oladi, bayram mavqeining oshishiga sabab bo‘ladi va ssenografiya qoidalariga to‘g‘ri keladi.

Ma‘lumot uchun Mustaqillik davrida Farg‘ona vodiysidagi ommaviy teatrlashgan bayramlarda faoliyat yuritgan rejissyorlar va rassomlar nomlarini berib o‘tsak. Farg‘onada rejissyorlar: Xusan Saidov, Muhammadsoli Yusupovlar; rassomlardan: Shuhrat Abdumalikov, Baxtiyor To‘rayev, Ixtiyor G‘oyipov, Furqat Qo‘chqorov va Otabek Shokirovlar; Andijonda rejissyorlar: Javlon Toshxo‘jayev, Mannon Xamidov, Alijon Asqarov va Dilmurod Shayxovlar; rassomlardan: Akrom Hayitov va Baxtiyor To‘rayevlar. Namanganda rejissyor: Karim Yo‘ldashev, Norqo‘zi Qo‘chqorov, Alisher Shamsiddinovlar; rassomlardan: Mashrab Mamajanov, Xojiakbar Oxundadayev va Zokirjon Omonovlar. Bu ijodkorlar viloyatning Navro‘z, Mustaqillik va boshqa an‘anaviy bayramlarida ijod qilib kelishmoqda. Xalqaro miqyosdagi bayram festivallarida, asosan, hukumat tomonidan tasdiqlangan rejissyor Rustam Shamsiddinov va rassom Akmal Jamolovlar birgalikda faoliyat yuritib kelishmoqda.

XULOSA

O‘zbekistonda bo‘layotgan amaliy islohotlar natijasida bugungi kunda san‘at va madaniyat sohalariga e’tibor kengayib bormoqda. Misol tariqasida, Farg‘ona vodiysidagi ommaviy bayramlarga so‘nggi yillarda e’tibor kuchayganligini, viloyatlarning xarakteriga monand festivallar tashkil qilinayotganligini va son jihatidan ham ko‘payayotganligini sezish mumkins. Hukumat va Farg‘ona vodiysidagi markaziy hokimiyatning qarorlari orqali respublika va xalqaro darajadagi bayramlarning saviyasi yildan yilga o‘sib bormoqda.

Farg‘ona vodiysidagi ommaviy teatrlashgan bayramlarning vatan ravnaqi uchun ijobiy natijalar

qo'shmoqda. Buning natijasida, vodiy viloyatlari san'at va madaniyat turizmini, milliy hunarmanchilik, tasviriy san'at turlari va xalqaro maydonlarni zabit etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mehriddinov A., Abdumuminov T. Diniy marosimlar va ularning xalqlar hayotida tutgan. Rossiyskiy universitet dружбы народов. 2023. – B.2.

2. Попова В. Праздник как социокультурный феномен. – Екатеринбург: Издательство Уральского университета, 2017. – Стр.9.

3. Абдумаликов Ш. Театр безаги композицияси. – Т.: МРДИ, 2020. – Б. 9.

4. Namangan xaqiqati gazetasi. 2019 yil, 29 may. – №43(19559). – B.4.